



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 9-yanvar, № 5 (9176)

Juma

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



MILLIY ARMIYAMIZ QUDRATI

JANGOVAR MEHNAT, QADRIYATLAR VA SADOQAT BILAN YANADA YUKSALADI



14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni

Bu dunyoda har bir millatning kelajak orzulari va maqsadi bo'ladi. Bu maqsadlar va orzu-umidlar esa, asosan, armiya va uning qudratiga bog'liq. Milliy armiyamizga nisbatan muhabbat, faqat uning askarlariga yoki qurollariga bo'lgan ehtirom emas, balki u mamlakatning tinchligi, xavfsizligi va barqarorligini ta'minlaydigan muhim omildir. Bu muhabbat jangovar mehnat, urf-odat va milliy qadriyatlarimiz bilan yanada yuksaladi.

Armiya har bir davlatning kelajagi, mustaqillikning garovidir. Yangi O'zbekistonimizning milliy armiyasi o'z harbiy qadriyatlariga ega bo'lib, uning barcha askarlari vazifalarini vijdonan va samarali bajarishga intiladi. Milliy armiyamizga bo'lgan muhabbat, bu – Qurolli Kuchlarimiz tarkibida o'zining shijoati, mas'uliyati va jangovar sifatleri bilan hissasini qo'shib kelayotgan har bir askarning maqsadga erishish uchun turli mutaxassislik sohalarida jonbozlik ko'rsatayotgan harbiy xizmatchilarimizning jangovar mehnati, insonparvarligi va vatanparvarligiga bo'lgan ehtiromi.



Jangovar mehnat, buyuk kelajagimiz, davlatimiz hamda xalqimiz tinchligi uchun jonini fido qilishga tayyor mard va jasur harbiylarimizning ko'p yillar davomida to'plagan harbiy mahorati, matonati va serqirraligi bilan qo'shgan hissasi, millatimiz uchun mo'ljallangan tinchlik va barqarorlikning asosiy omillaridir.

Milliy armiyamizga nisbatan muhabbat, nafaqat harbiy xizmat va jangovar vaziyatlarda ko'rsatiladigan matonat, balki milliy urf-odatlarimizga

va qadriyatlarimizga nisbatan tutash va bog'liqdir. Bizning xalqimizning ulkan tarixiy merosi, qadimiy urf-odatlari va an'alarini qadrlash milliy armiyamizdagi har bir jonkuyar askarning yuragidagi sadoqatini yoritadi.

O'zbek millatining bosib o'tgan tarixiy o'tmishiga nazar solar ekanmiz, ma'rifatparvar, fidoyi, elparvar va ozodlik uchun kurash olib borgan jadicchi bobolarimizning boy merosini, ibratli hayoti va ijtimoiy faoliyatini o'rganish

orqali, adolat va tenglikni, ilm-ma'rifatni, miliy o'zlikni asrash g'oyalarini ilgari surib, kurash maydoniga mardonavor chiqqanini unutishga haqqimiz yo'q, albatta. Bu ulug' bobolarimizning maqsadi jaholatga qarshi ilm va ma'rifat hamda qoloqlik va ma'naviy qashshoq xalqni dunyoviy ilm-fan, kasb-hunar bilan qurollantirib, xalqimiz o'rtasida qadriyatli munosabatlarni shakllantirishdan iborat bo'lgan.

Ular tomonidan yangicha yondashuvdagi maktablar, kutubxona, teatr va muzeylar, gazeta hamda jurnallarning chop etilishi, xalqimizni uyg'otib, ularni ilm olishga bor kuch-g'ayratlarini sarflashga undadi va bu ishlar harbiy jamoalarning milliy va jangovar ruhini oshirishga, g'oyaviy jangchi shaxsini shakllantirishga, miliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalanishida ma'naviy ozuqa bo'lib xizmat qilib kelmog'da.

Milliy armiyamizga muhabbat, bu – buyuk xalqimizga, uning o'tmishidagi avlodlariga, til va madaniyatga, urf-odatlarimizga nisbatan hurmat va e'zozni anglatadi. Milliy armiyamiz nafaqat davlat xavfsizligini ta'minlovchi institut, balki millatning ma'naviy-ruhiy asoslarini, urf-odatlarini va qadriyatlarini saqlovchi, ularga sadoqatli bo'lish yo'lida yordamchi kuchdir.

YURT RAVNAQIGA QARATILGAN QO'LLANMA



Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi tashabbusi bilan "O'zLITneftgaz" aksiyadorlik jamiyatida Prezidentimizning parlament va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasidan kelib chiqadigan dolzarb vazifalarni tushuntirishga bag'ishlangan seminar bo'lib o'tdi.

Seminar

Tadbir davomida ishtirokchilarga belgilangan vazifalarning mazmun-mohiyati, ularni amalga oshirish masalalari atroflicha tushuntirildi.

Ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda barcha sohalar qatori neft-gaz tarmog'ida ham keng ko'lami islohotlar izchil olib borilmoqda. Xususan, ishlab chiqarish quvvatlarini kuchaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, investitsiya loyihalarini amalga oshirish, sanoatni mahalliydasturlash va milliy kadrlar salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan strategik dasturlar muhokama qilindi.

Seminar davomida Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi raisi Erkin Gadoyev davlat xaridlarini tizimini takomillashtirish, korrupsiyaga qarshi kurashish choralarini kuchaytirish hamda ushbu yo'nalishlarda belgilangan ustuvor vazifalar va ularning 2026-yilda amaliy ijrosini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratdi.

Tadbir doirasida ishtirokchilar tomonidan Prezidentimiz Murojaatnomasida belgilangan yo'nalishlarning joylarda samarali ijrosini ta'minlashga qaratilgan qator taklif va tavsiyalar bildirildi.

"Xalq so'zi".

"O'zbekiston – 2030" strategiyasi: XALQQA XIZMAT QILISHNING ZAMONAVIY MODEL

Bugun jahonda kechayotgan shiddatli global o'zgarishlar, xalqaro bozorlardagi tebranishlar va texnologiyalarning misli ko'rilmagan darajada rivojlanishi har bir davlatdan nafaqat moslashuvchanlikni, balki uzoqni ko'zlagan strategik hushyorlikni ham talab etmoqda. Energiya bozorlaridagi transformatsiya va global ta'minot zanjirlarining qayta shakllanishi sharoitida O'zbekiston o'z taraqqiyot yo'lini yangicha yondashuvlar asosida belgilab olishi davr taqozosidir.

Aks sado

"Maqsad – harakat – natija" zanjiriga asoslangan mutlaqo yangi strategik rejalashtirish va rivojlantirish tizimi nafaqat davlat boshqaruvining, balki jamiyatimiz hayotining bosh mezoniga aylandi. Shu ma'noda, "O'zbekiston – 2030" strategiyasining yangi talablar asosida takomillashtirilishi biz, Qonunchilik palatasi deputatlari zimmasiga ham katta mas'uliyat yuklaydi.

Biz intilayotgan asosiy maqsad – davlat

boshqaruvini to'liq xalq xizmatiga yo'naltirish va uning samaradorligini xalqaro standartlar darajasiga ko'tarish. Bu borada Strategiyada belgilangan vazifalar nihoyatda salmoqli. Jumladan, davlat fuqarolik xizmatida lavozimlarni egallash 100 foiz malaka darajasiga asoslangan karyera modeli bo'yicha, ochiq tanlovlar orqali amalga oshiriladi. Bu tizim tanish-bilishchilik illatiga chek qo'yib, iqtidorli mutaxassislariga keng yo'l ochadi. "Edu.bsa.uz" platformasi va "Davlat xizmatchisi" mobil ilovasi orqali kadrlar malakasini oshirish va boshqarish jarayonlari to'liq raqamlashtiriladi.

ILM-FAN – JAMIYAT TARAQQIYOTINING KO'ZGUSI

Zaminimiz qadimul-ayyomdan qilni qirq yorgon ahli donish, ulamolar va nafis so'z hikmatlari sohiblari, ahli shuorolar Vatani bo'lganiga bu ko'hna dunyo guvoh. Ne-ne donishmand ajdodlarimizning muhtasham va benazir ilmiy hamda adabiy merosining bugungacha olam ahli zakosiga chiroq tutib kelayotgani e'tirof etilgan haqiqat. Uzun zamonlar silsilasida yurtimizda samarali faoliyati bilan chuqur iz qoldirgan "fan uylari" – "Baytul-hikma"lar, Ma'mun akademiyasi jahon ilmi tarixida jiddiy iz qoldirganligi ma'lumu mashhur. Davrimizda yurtimizning bosh "baytul-hikma"si, albatta, Fanlar akademiyasidir.

Munosabat

Bugun O'zbekistonning aqli solim, zehnu zakosi raso fuqarolari, ilming chin muhoblari shijoatli Yurtboshimizning oqilona va odilona da'vatlari bilan uchunchi Renessans poydevorini yaratishdek ulug'vor maqsad bilan sa'y-harakat qilmoqda, tabiiyki, asosiy hadafimiz bo'lmish yurtimizning porloq istiqboliga erishmoq aynan shuni talab etadi.

Darhaqiqat, mamlakat va jamiyatning barqaror taraqqiyotini ilm-fan rivojisiz

tasavvur qilib bo'lmaydi. Ayniqsa, dunyoda global raqobat kuchayib borayotgan, intellektual salohiyat hal etuvchi omilga aylanayotgan bugungi sharoitda Yangi O'zbekistonda fundamental ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishga davlat siyosati darajasidagi ustuvor vazifa sifatida qaralayotgani bejiz emas. Fundamental tadqiqotlar yangi nazariy bilimlar yaratilishi, ilmiy maktablar shakllanishi, amaliy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalar uchun mustahkam zamin hozirlaydi.

QONUN POSBONLARI VA ADOLAT HIMOYACHILARI BAYRAMI

Mamlakatimizda bir necha yillardan buyon 8-yanvar – O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari xodimlari kuni sifatida nishonlanib kelinayapti. Ushbu sananing aynan yangi yilning ilk kunlarida keng tantana qilinishi prokuratura tizimi oldida turgan yangi hamda muhim vazifalarni belgilab olish imkonini ham bermog'da.


Shukuh



An'anaga ko'ra, kecha O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari tashkil etilganligining 34 yilligi va 8-yanvar – Prokuratura organlari xodimlari kuniga bag'ishlab poytaxtimizdagi muhtasham "Turkiston" san'at saroyida tantanali bayram tadbiri bo'lib o'tdi.

Mazkur tadbirida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi mas'ullari, Oliy Majlis hamda Hukumat a'zolari, vazirlik va

idoralar, ommaviy axborot vositalari vakillari, Bosh prokuratura, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, O'zbekiston Respublikasi Harbiy va Transport prokuraturalari, Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti hamda Majburiy ijro byurosi, Huquqni muhofaza qilish akademiyasi xodimlari, shuningdek, faxriylar ishtirok etdi.



“Bunday murakkab vaziyatda barcha davlatlar bilan teng huquqli va konstruktiv munosabatlarni yanada mustahkamlash, vazmin va oqilona ochiq tashqi siyosat olib borishga qaratilgan faoliyatimizni davom ettiramiz”.

(Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va Oʻzbekiston xalqiga Murojaatnomasidan).

YANGI OʻZBEKISTONNING DOʻSTONA, OQILONA VA TASHABBUSKORONA TASHQI SIYOSATI SAMARALARI

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan mamlakatimizda “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb eʼlon qilingan 2025-yil poyoniga yetdi. Dunyo miqyosida esa biz yaqin-yaqingacha hech kim tasavvur qila olmagan oʻzgarishlar, davlatlar oʻrtasidagi iqtisodiy qarama-qarshiliklar, xavfsizlikka tahdidlar ortib borayotgan tahlikali yilni yakunladik. Shunga qaramay oʻtgan yilda davlatimiz rahbari tomonidan olib borilgan Yangi Oʻzbekistonning oʻzaro manfaatli hamkorlikka asoslangan doʻstona tashqi siyosati tufayli xalqaro munosabatlار sohasida ulkan yutuqlarga erishdik.

Nuqtai nazar

Millat sardori Oʻzbekiston va BMT munosabatlari tarixida yangi sahifa ochdi

Yangi Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, xalqimiz uchun munosib turmush darajasini taʼminlash, mustahkam milliy huquqiy tizim va ochiq fuqarolik jamiyati barpo qilish yoʻlidagi keng koʻlamli hamda shiddatli islohotlar dunyo jamoatchiligi tomonidan eʼtirof etilmogʻda. Masalan, 2025-yilda BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari indeksida Oʻzbekiston 19 pogʻona yuqori koʻtarilib, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasida eng jadal rivojlanayotgan mamlakat sifatida qayd etildi.

Shu maʼnoda, davlatimiz rahbari Oliy Majlis va Oʻzbekiston xalqiga Murojaatnomasi taqdim qilingan anjumanda qatnashgan xorijiy davlatlar elchilariga alohida murojaat etib, **“Biz bilan aloqalarni kengaytirib, Oʻzbekistonning Jahon savdo tashkilotiga aʼzo boʻlishini faol qoʻllab-quvvatlayotgani uchun mamlakatlarimiz hukumatlariga alohida tashakkur bildiraman”**, deya taʼkidlagani bejiz emas. Prezidentimiz, shuningdek, nufuzli xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, jahon iqtisodiy va moliyaviy institutlari bilan yaqin hamkorlik yangi bosqichga olib chiqilishiga eʼtiborni qaratadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 18-moddasiga muvofiq, “Oʻzbekiston Respublikasi davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki va koʻp tomonlama munosabatlarni har taraflama rivojlantirishga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosatni amalga oshiradi”.

Shu mustahkam konstitutsiyaviy-huquqiy asosga tayanib, Oʻzbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan oʻzaro hamkorlikni izchil davom ettirmogʻda. Binobarin, “Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi” va “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasida ham mamlakatimiz dunyoning barcha mamlakatlari bilan manfaatli hamkorlik qilishga va BMT hamda uning institutlari bilan amaliy muloqotga hamisha tayyorligi taʼkidlangan.

Bu haqda fikr yuritganda, Oʻzbekiston oʻz tashqi siyosatining ustuvor yoʻnalishi hisoblanuvchi diplomatiya sohasida hamkor davlatlar bilan ikki tomonlama, qoʻshni mamlakatlar bilan mintaqaviy, asosiy xalqaro tashkilotlar doirasida esa koʻp tomonlama oʻzaro manfaatli hamkorlikka katta ahamiyat qaratayotganini taʼkidlash lozim.

Davlatimiz BMT Nizomi, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va boshqa asosiy xalqaro shartnomalardagi maqsad hamda prinsiplarga sodiq boʻlib, oʻz zimmasiga olgan majburiyatlarni izchil va ogʻishmay bajarib kelmogʻda.

Keyingi yillarda Oʻzbekiston Respublikasining xalqaro tashabbuslari asosida, xususan, BMT Bosh Assambleyasining 15 ta rezolyutsiyasi qabul qilindi. Davlatimiz rahbari 2017-yildan buyon BMT bosh minbarida besh marta nutq soʻzladi va ayni voqeqli Yangi Oʻzbekiston shu qisqa davrda BMTning eng faol hamda tashabbuskor aʼzolaridan biriga aylanganini va mazkur nufuzli tashkilot bilan hamkorligimiz mutlaqo yangi darajaga koʻtarilganini yaqqol tasdiqlaydi.

Eʼtibor berilg: Prezident Shavkat Mirziyoyev bundan 5 yil oldin BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida Bosh Assambleiya tarixida ilk marotaba oʻzbek tilida nutq soʻzladi. Bundan sakkiz yil oldin esa davlatimiz rahbarining BMT bosh minbaridagi dastlabki nutqida buyuk alloma bobomiz Imom Buxoriy hazratlarining muborak nomlari xalqaro hamjamiyatning ushbu nufuzli anjumanida tarixda birinchi bor baralla yangragandi.

Soʻnggi yillarda BMT bilan hamkorlik bemisli darajaga koʻtarilib, 160 ta qoʻshma dastur va loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilmogʻda. Oʻtgan yilning oʻzida tashkilotning asosiy tuzilmalari va institutlari, jumladan, BMT-Xabitat va YUNISEF rahbarlari Oʻzbekistonga tashrif buyurdi, Toshkentda “BMT-Ayollar” tuzilmasining vakolatxonasi ochildi.

Yangi Oʻzbekistonda inson huquqlari himoyasi BMT bilan hamkorlikning ustuvor yoʻnalishlaridan biri sifatida koʻriladi. Bugun mamlakatimizda demokratiyaning zamonaviy va inson huquqlari mezonlariga javob beradigan barqaror siyosiy tizimi barpo etilgan. Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi organlar va barcha darajadagi sud hokimiyati faol ishlamoqda.

Yangi tahrirdagi Oʻzbekiston Konstitutsiyasining 19-moddasiga muvofiq, Oʻzbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umumeʼtirof etilgan normalariga binoan hamda Konstitutsiyaga muvofiq eʼtirof etiladi va kafolatlanadi.

Yangi Oʻzbekistonda Konstitutsiyaga va mamlakat qonunlariga hurmat tugʻusi kuchaymogʻda, “Inson shaʼni va qadr-qimmatini yoʻlida” ustuvor prinsipi hayotda oʻz tasdiqʻini

topmogʻda. Oʻzbekiston BMT tuzilmalari, boshqa xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan inson huquqlarini ilgari surish hamda himoyalash masalalari boʻyicha ham faol hamkorlik olib bormogʻda. Mamlakatimiz tomonidan ratifikatsiya qilingan shartnomalarning bajarilishi boʻyicha BMTning ustav organlari va shartnomaviy qoʻmitalariga 50 dan ortiq milliy maʼruzalar oʻz vaqtida taqdim etilishi taʼminlandi.

Inson huquqlarini himoya qilish va huquqiy taʼlim samaradorligini oshirish, shuningdek, BMTning Inson huquqlari sohasidagi taʼlimga oid Jahon dasturining toʻrtinchi bosqichida belgilangan vazifalarni bajarish boʻyicha ishlar faol davom ettirilmoqda. Shu maqsadda Yangi Oʻzbekistonda Inson huquqlari boʻyicha taʼlim milliy dasturi izchil amalga oshirilayapti.

Inson huquqlari boʻyicha kengash va uning maxsus tartib-taomillari bilan faol hamkorlik davom etayotir. Oʻzbekiston BMTning turli organlari tavsiyalari asosida yettita milliy harakat rejasini amalga oshirmogʻda. Bular, jumladan, BMT Xavfsizlik Kengashining “Ayollar, tinchlik va xavfsizlik toʻgʻrisida”gi 1325-sonli rezolyutsiyasini amalga oshirish; ayollarga nisbatan kamsitishlarga qarshi kurashish; iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar; nogironligi boʻlgan shaxslar huquqlari; Inson huquqlari boʻyicha Oliy komissar tavsiyalarini amalga oshirish; terrorizmga qarshi kurashish va bola huquqlari boʻyicha rejalardir.

Yangi Oʻzbekiston 2025-yilda BMTning fuqarosizlikni bartaraf etish boʻyicha tavsiyalarini bajarish borasida tarixiy yutuqqa erishdi va bu muvaffaqiyat dekabr oyida Jenevadagi Millatlar saroyida oʻtkazilgan anjumanlarda eʼtirof etildi. Gap shundaki, 1991-yildan 2016-yilgacha, bor-yoʻgi, 482 kishi Oʻzbekiston fuqaroligini olgan boʻlsa, 2017-yildan 2025-yilgacha 85 mingdan ortiq kishilar Oʻzbekiston fuqaroligiga ega boʻldi.

Bugungi kunda BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM)ni roʻyobga chiqarish, raqamli transformatsiyani rivojlantirish, davlat xizmatlarini koʻrsatishda innovatsion yechimlarni joriy qilish, davlat boshqaruvi institutlari samaradorligini tubdan oshirish boʻyicha ilgʻor xalqaro tajriba almashish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmogʻda.

Yangi Oʻzbekiston BRMning Global indeksi boʻyicha eng ilgʻor beshta davlat qatoriga kirdi. BRMga erishish doirasida BMT bilan hamkorlikning yangi besh yillik dasturini imzolash kutilmogʻda. Davlat xizmati masalalari boʻyicha forum birgalikda tashkil etildi. Samarqand shahrida YUNESCO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi oʻtkazildi.

Prezidentimiz taʼbiri bilan aytganda, **“Biz Barqaror rivojlanish maqsadlariga hamohang holda, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy Yangi Oʻzbekistonda barpo etish siyosatini olib bormogʻdamiz. Buning uchun ortga qaytmas islohotlarimizni izchil davom ettiraymiz. Ustuvor maqsadimiz – mamlakatimizda yashayotgan har bir oilaning, har bir fuqaroning hayotini tubdan oʻzgartirish, inson qadri va farovonligini oshirishdir”**.

Prezidentimiz Ijtimoiy rivojlanish boʻyicha ikkinchi Butunjahon Doha sammitida soʻzga chiqib, global ijtimoiy adolat va barqaror taraqqiyotni mustahkamlashga qaratilgan bir qator taklif va tashabbuslarni taqdim qildi. Davlatimiz rahbarining nutqida taʼkidlanganidek, **“Bugungi kunda ijtimoiy farovonlikni taʼminlash, aholi turmushini yaxshilash borasida dunyo hamjamiyati va milliy hukumatlar birgalikda harakat qilayotgani eʼtiborga molikdir. Oʻzbekiston barqaror taraqqiyot sari barcha xalqaro hamkorlik formatlari va tashabbuslarini doim qoʻllab-quvvatlaydi”**.

Yangi Oʻzbekiston dunyoga, dunyo esa yurtimizga keng ochilmogʻda. Mintaqamiz va butun jahonda doʻstlarimiz, hamkorlarimiz koʻpaymogʻda. Oʻzbekiston hozirgi kunda aholi soni boʻyicha jahondagi eng yirik 40 ta davlatdan biri hisoblanadi. Yurtimiz shiddatli demokratik oʻzgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanib bormogʻda.

Mamlakatimiz inson huquqlarini himoya qilish boʻyicha mintaqaviy tuzilmalarda faol ishtirok etayotir. 2025-yilda yangi tashkil qilingan MDHning Inson huquqlari boʻyicha komissiyasi raisi Oʻzbekistonga tashrif buyurdi. 2025-yil 21-22-iyun kunlari Turkiyaning Istanbul shahrida “Islom hamkorlik tashkiloti dunyo oʻzgarishi sharoitida” shiori ostida oʻtkazilgan Islom hamkorlik tashkiloti (IHT) Tashqi ishlar vazirlari kengashining 51-sessiyasida xalqaro kun tartibidagi dolzarb masalalar muhokama etildi, Istanbul deklaratsiyasi qabul qilindi. Sessiyaning asosiy natijalaridan biri 2025 – 2028-yillarga moʻljallangan muddatga IHT Inson huquqlari boʻyicha mustaqil doimiy



komissiyasining toʻqqiz nafar yangi aʼzosi saylovi oʻtkazilganidir. Ovoz berish natijalariga koʻra, Oʻzbekiston vakili – Inson huquqlari boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi Milliy markazi direktorining birinchi oʻrinbosari, professor Mirzatillo Tillaboyev uch yil muddatga IHT Inson huquqlari boʻyicha mustaqil doimiy komissiyasiga aʼzo etib saylandi.

Ushbu voqea Yangi Oʻzbekistonning inson huquqlari sohasidagi xalqaro diplomatiyada egallagan mavqei tobora oʻsib borayotganini yana bir bor tasdiqlaydi va mamlakatimizning koʻp tomonlama hamkorlik, islomiy birdamlik hamda asosiy erkinliklarni himoya qilish prinsiplariga sodiqligini namoyish etadi. Bundan tashqari, bu natija Oʻzbekistonning inson huquqlari boʻyicha xalqaro institutlar bilan oʻzaro hamkorligidagi muhim bosqich boʻlib, IHTga aʼzo davlatlarning mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga boʻlgan ishonchidan dalolat beradi.

Prezidentimiz Murojaatnomada qayd etganidek, Oʻzbekiston Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligi, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Turkiy davlatlar tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti doirasida anʼanaviy, keng qamrovli sheriklik aloqalarini yanada kengaytiradi.

Mamlakatimiz, shuningdek, Xalqaro valyuta jamgʻarmasi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki va boshqa yetakchi moliya institutlari bilan hamkorlikda iqtisodiyotimizni texnologik modernizatsiya qilish, infratuzilmamiz rivojlantirish, barqaror energetika va transport loyihalarini amalga oshirish borasidagi ishlarni davom ettiradi.

Markaziy Osiyoni tinch va gullab-yashnayotgan hududga aylantirish yoʻlida

Oʻzbekistonning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida qoʻshni davlatlar bilan doʻstona munosabatlarni oʻzaro hamkorlik, qoʻllab-quvvatlash, millatlararo va konfessiyalararo totuvlik maydonlari asosida mustahkamlash belgilanganligi xalqaro, mintaqaviy hamda xorijiy ekspertlar tomonidan ijobiy baholalmogʻda.

Turli xalqaro reyting va indekslarda mamlakatimizning mavqei yaxshilanayapti. Oʻzbekiston rahbarining pragmatik tashqi siyosiy tashabbuslari butun dunyoda eʼtirof etilayotir. Dunyodagi hech bir mamlakatda soʻnggi yillarda Yangi Oʻzbekistondagi kabi keng koʻlamli islohotlar amalga oshirilmagan. Oʻzbekiston liderining yaxshi qoʻshnichilik siyosati, taʼbir joiz boʻlsa, mintaqaviy siyosatga doir oqilona doktrinasi tufayli Markaziy Osiyo davlatlari ilk bor bugungi kunda dolzarb boʻlgan mintaqaviy masalalarni ochiq va samimiy muhokama qila boshladi.

Yevroosiyo kengliklarining naq “yuragi”da joylashgan, tabiiy resurslarga boy, insoniyat sivilizatsiyasiga munosib hissa qoʻshgan noyob madaniyat va taraqqiyot salohiyatiga ega Markaziy Osiyo mintaqasida ayni paytda turli davlatlar va kuch markazlarining manfaatlari kesishmogʻda. Shundoq ham ayrim beqarorlik va qarama-qarshilik oʻchoqlariga tutash boʻlgan ushbu mintaqqa yaqin hamda uzoq xorijda roʻy berayotgan mojoralarining salbiy taʼsirini ham oʻzida his etmogʻda. Bunday murakkab sharoitda Prezidentimiz qatʼiyat bilan uqtirganidek, **“Markaziy Osiyodagi qoʻshni davlatlarning mintaqaviy hamkorlikni kengaytirishdan boshqa yoʻli yoʻq va boʻlishi ham mumkin emas”**.

Shu ishonch negizida oʻtgan yillarda Oʻzbekiston tashabbusi bilan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlarini oʻtkazish muntazam yoʻlga qoʻyildi. Bugungi kunda ushbu uchrashuvlar mintaqada oʻzaro hamjihatlik va hurmat, yaqin qoʻshnichilik hamda strategik sheriklik ruhida mutlaqo yangi siyosiy muhitni shakllantirish, muhim hayotiy masalalarni hal qilish va koʻp qirrali hamkorligimizni sifat jihatdan yangi mazmun bilan toʻldirish borasida samarali platformaga aylandi.

Natijada xalqaro siyosiy lugʻatda mintaqaviy taraqqiyotni taʼminlashga xizmat qiluvchi oʻziga xos modelni aks ettiradigan “Yangi Markaziy Osiyo ruhi” atamasi paydo boʻldi. Bugun biz global va mintaqaviy siyosat kun tartibidagi koʻplab dolzarb masalalar boʻyicha yagona pozitsiyada turib harakat qilmoqdamiz. Natijada Prezidentimiz qayd etganidek, mamlakatlarimiz 2017-yildan buyon Markaziy Osiyoda taraqqiyot va sheriklikning muhim masalalari boʻyicha Birlashgan Millatlar

Tashkilotining oʻndan ziyod rezolyutsiyalari qabul qilinishiga erishdi. Qisqa davrda dunyoda mintaqamizga nisbatan ishonch va hamkorlikka intilish kuchaydi. “Markaziy Osiyo +” formatida oʻndan ortiq hamkorlik muloqotlari yoʻlga qoʻyilgani buni tasdiqlaydi.

Ayniqsa, mamlakatimiz poytaxtida 2025-yil 16-noyabrda Oʻzbekiston Prezidenti raisligida oʻtkazilgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvi gʻoyat katta tarixiy ahamiyatga ega voqea boʻldi. Davlatimiz rahbari mintaqaviy hamkorlikni yanada mustahkamlash boʻyicha qator tashabbuslarni ilgari surdi. Ayni jarayonda “mintaqaviy oʻziga xoslik” va “mintaqaning xalqaro huquqiy subyekt sifatidagi mavqei” degan yangi tushunchalar lugʻatimizga kirib keldi.

Mintaqaviy oʻziga xoslikning mohiyati nimada? Oʻzbekiston lideri taʼbiri bilan aytganda, bu farqli jihatlarimizni eʼtirof etish va ayni paytda xalqlarimizning umumiy tarixi, musharak madaniyatini, taqdiralarimiz oʻzaro bogʻliq ekanini chuqur anglashga asoslanadi. Qoʻshnichilik – xavf emas, imkoniyat, bir tarafning muvaffaqiyati – barchaning yutugʻi degan yagona mintaqaviy makonga mansublik hissi shakllanmogʻda.

Shunday qilib, keyingi yillarda Markaziy Osiyo mintaqasida yaxshi qoʻshnichilik munosabatlarni rivojlantirish boʻyicha amalga oshirilgan tub oʻzgarishlar Oʻzbekiston tashqi siyosatining katta yutugʻidir. Prezidentimiz taʼkidlaganidek, **“Markaziy Osiyoni tinch va gullab-yashnayotgan hududga aylantirish bundan buyon ham Oʻzbekiston tashqi siyosatining ustuvor maqsadi boʻlib qolaveradi”**.

Ochiq va faol diplomatiya istiqbollari

Yakuniga yetgan 2025-yilda Yangi Oʻzbekiston tashqi siyosatida diplomatik munosabatlار geografiasini sezilarli darajada kengaytdi. Rasmiy maʼlumotlarga koʻra, oʻtgan yil davomida mamlakatimiz Afrika, Okeaniya hamda Karib havzasiga mansub 8 ta davlat bilan diplomatik munosabatlar oʻrnatdi.

Bizning taxminiy kuzatuvlarimizga koʻra, Yangi Oʻzbekiston Prezidenti 2025-yilda dunyoning 28 ta davlatiga rasmiy va davlat tashriflarini amalga oshirdi. Mamlakatimizga kelgan davlat boshliqlari, hukumat rahbarlari va boshqa moʻtabar mehmonlar bilan oʻtkazilgan qabullar soni 23 tani tashkil qildi.

Prezidentimiz Murojaatnomasida jahonda murakkab geosiyosiy va iqtisodiy muammolar tobora avj olib borayotganiga alohida eʼtibor qaratilgani bejiz emas. Bunday murakkab vaziyatda Oʻzbekiston barcha davlatlar bilan teng huquqli va konstruktiv munosabatlarni yanada mustahkamlash, vazmin hamda oqilona ochiq tashqi siyosat olib borishga qaratilgan faoliyatini izchil davom ettiradi.

Oʻz navbatida, Prezidentimiz Yangi Oʻzbekiston tashqi siyosatining yaqin va uzoq istiqboldagi yoʻnalishlarini yana bir bor tasdiqladi.

Birinchidan, yaqin qoʻshnilarimiz bilan koʻp asrlik doʻstlik, yaxshi qoʻshnichilik, strategik sheriklik va oʻzaro ishonch ruhida aloqalarimizni yanada rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratamiz. Bunda mintaqamiz davlatlari oʻrtasidagi savdo-iqtisodiy, transport-logistika, energetika, suv, ekologiya, xavfsizlik, madaniyat va taʼlim sohalarida hamkorlikni yanada chuqurlashtiramiz.

Ikkinchidan, Afgʻoniston bilan savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish, uni mintaqadagi iqtisodiy jarayonlarga keng jalb qilish Oʻzbekistonning asosiy maqsadlaridan biri boʻlib qoladi.

Uchinchidan, mamlakatimizning asosiy xorijiy sheriklarimiz hisoblangan Rossiya, Xitoy, Amerika Qoʻshma Shtatlari, Turkiya, Germaniya, Fransiya, Italiya, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari, Qatar, Iordaniya, Kuveyt, Oʻmon, Hindiston, Pokiston va boshqa davlatlar bilan koʻp qirrali hamda oʻzaro manfaatli aloqalarini yanada kengaytirish bundan buyon ham eʼtiborimiz markazida boʻladi.

Toʻrtinchidan, Janubi-Sharqiy Osiyo, Yaqin Sharq, Afrika, Lotin Amerikasi mamlakatlari bilan yangi va istiqbolli yoʻnalishlarda manfaatli hamkorlikni mustahkamlash, Janubiy Kavkaz va Janubiy Osiyo mamlakatlari bilan munosabatlarni kengaytirish strategik yoʻnalishlarimizdan biri boʻlib qoladi.

2025-yil Yangi Oʻzbekiston tashqi siyosatida ikki va koʻp tomonlama munosabatlarni mustahkamlash hamda rivojlantirish borasida katta yutuqlar yili sifatida tarixga kiradi. Prezidentimiz 2025-yil 22-sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 80-yubiley sessiyasida soʻzlagan nutqida eʼtirof etganidek, **“Yangi Oʻzbekiston barcha davlatlar bilan oʻzaro hamjihatlik, ochiq muloqot va yaqin sheriklik tarafdoridir. Biz xalqlar, madaniyatlar va sivilizatsiyalar oʻrtasidagi muloqotni mustahkamlash, umumbashariy maqsadlarni roʻyobga chiqarish yoʻlida oʻz hissamizni qoʻshishga doim tayyormiz”**.

Akmal SAIDOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati,
Inson huquqlari boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi
Milliy markazi direktori.



Intilish

Milliy armiyamizda xizmat qilayotgan har bir jonkuyar ofitser, serjant va askar oʻzining sadoqatini, fidoyiligini, mard va jasurligini, yurtimiz tinchligi uchun chinakam masʼuliyatini, unib-oʻsib kelayotgan yoshlarga, xonadonida esa farzandlariga, “Ustoz – shogird” anʼanalarini harbiy jamoalarda toʻlaqonli amalga oshirilishida milliy, maʼnaviy, madaniy va harbiy qadriyatlarimizga tayanib, ularga xalqaro va milliy normalarga muvofiq hayot kechirishga ilhom berishdir. Bu usuldagi harbiy xizmat, jamiyatning maʼnaviy rivojlanishiga, oʻzligini anglashga va millatning taqdiriga sodiq boʻlishga yoʻnatiladi.

Milliy armiyamiz oʻzini eng yaxshi kadrlar bilan toʻldirish va bu borada oliy maqsadlarga erishishga intiladi. Hozirgi kunda milliy armiyamiz eng zamonaviy qurol-yarogʻ, tibbiy hamda muhandislik uskunalar va texnikasi bilan taʼminlanib, zamonaviy harbiy taʼlim olishga eʼtibor qaratilmogʻda.

Qurolli Kuchlarimiz saflarida bugungi kunda ofitser, serjant va askarlarimizning bilim darajasi, ularning harbiy kasbiy va jangovar tayyorgarligi, togʻ,

choʻl, suv, shahar hududi va havodagi har xil taktik usullarga, shuningdek, jahon maydonlarida sunʼiy intellekt bilan bogʻliq urush uchoqlari rivojlanib borayotgan bir vaqtda unga boʻlgan immunitetni shakllantirish bilan bogʻliq choralar koʻrilayotgani, jahon maydonida milliy armiyamiz obroʻyini yuksaltirishga yordam bermogʻda.

Shu bilan birga, milliy armiyamizga nisbatan muhabbat yosh avlod uchun namuna boʻlib, ularning Vatanga boʻlgan sadoqatini qoʻllab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Milliy armiyamizga sadoqat, har bir ofitser, serjant va askarning xalqimizga boʻlgan hurmat hamda ehtiromini koʻrsatadi. Bizning milliy armiyamiz nafaqat belgilangan jangovar xizmat va uzoq yillar davomida oʻrganilgan ish tajribasi bilan, balki xalqimizning milliy, maʼnaviy, madaniy, tarixiy hamda harbiy qadriyatlari va anʼanalarini hurmat qilish bilan ham aloqador.

Anvarjon IBRAGIMOV,
Oʻzbekiston harbiy aviatsiya instituti
katta oʻqituvchisi,
podpolkovnik.

DANG‘ARA IT AKADEMIYASI



Dang‘ara tumanidagi “Navbahor” mahalla fuqarolar yig‘ini hududida IT akademiyasi faoliyat boshladi. Jahon andozalari bo‘yicha qurib bitkazilgan va eng so‘nggi rusumdagi o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, jihozlar bilan ta‘minlangan nodavlat ta‘lim muassasasida bir paytning o‘zida 500 nafar yosh turli mashg‘ulotlarga jalb etiladi. Bunga qo‘shimcha ravishda har oyda 200 nafar yig‘it-qiz o‘zi qiziqqan to‘garaklarga qatnashi mumkin.

A k a d e m i y a d a zamonaviy axborot texnologiyalari, dasturlash, raqamli savodxonlik va innovatsiya yoʻnalishida bilim hamda amaliy koʻnikmalar berib boriladi. Bu yerda yoshlar bir necha xorijiy tillarni oʻrganish, milliy va xalqaro sertifikatlarni qoʻlga kiritish uchun maxsus dasturlar orqali oʻqish imkoniga ham ega boʻladi.

– Eʼtiborlisi, yangi markazda raqamli iqtisodiyot tarmoqlari, mahalliy va xorijiy mehnat bozori uchun malakali mutaxassislar tayyorlash ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan, – deydi Dang‘ara tumani hokimligi bosh mutaxassisi Mashrabjon Alijonov. – Oʻz navbatida, istiqbolli loyihalarini tumanimizda hayotga tatbiq etish, bu borada tadbirkorlik subyektlari, investorlar bilan



faol hamkorlikni yoʻlga qoʻyish koʻzda tutilmogʻda.

S h u m a q s a d d a akademiyada faoliyat olib borish uchun ushbu sohada kuchli bilim va amaliy tajribaga ega mutaxassislar jalb etilyapti. Yaqin kelajakda xorijdan yuqori malakali mutaxassislarni taklif qilish ham rejalashtirilgan.

Botir MADIYOROV
(“Xalq soʻzi”).

Uzunligi 465 km. boʻlgan va elektrlashtirish ishlari yakunlangan Buxoro – Xiva temir yoʻl liniyasi orqali 2026-yildan boshlab Toshkent – Urganch – Xiva yoʻnalishida yuqori tezlikda harakatlanuvchi elektropoyezdlar qatnovini tashkil etish rejalashtirilgan.

ILM-FAN – JAMIYAT
TARAQQIYOTINING
KO'ZGUSI

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilm-fan sohasini isloh qilish va uni mutlaqo yangi bosqichga ko'tarishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlatimiz rahbari faoliyatining ilk kunlaridan oq ilm-fanning jamiyat taraqqiyotidagi mislsiz qudratini yuksak baholab, uning jadal taraqqiyoati uchun muhim hayotiy tamoyillarni belgilab berdi. Xususan, 2016-yil 30-dekabr kuni mamlakatning yetakchi olimlari bilan o'tkazilgan uchrashuvda iqtisodiyotning barcha tarmoqlari yuksalishida ilm-fanning beqiyos o'rni, davlat bu borada, avvalo, Fanlar akademiyasi va olimlarga suyanishi, fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri ekan alohida ta'kidlandi. Bu esa mamlakatda ilm-fanni jamiyat takomili mexanizmining harakatlantiruvchi asosiy kuchiga aylantirishga qaratilgan izchil siyosatning amaliy ifodasi bo'ldi.

Davlatimiz rahbarining Fanlar akademiyasi tashkil etilganiga 80 yil to'lishi munosabati bilan yo'llagan tabrigida milliy ilm-fan rivoji borasida qimmatli fikrlar bayon qilingani ham diqqatga sazovor. Jumladan, tabrikda ulug' alloma Mahmud Koshg'ariyning "Olimning yostig'i toshdandir" hikmatli so'ziga tayanib, Yangi O'zbekiston ilmiy-intellektual salohiyatini oshirish yo'lidagi fidokorona sa'y-harakatni uddalagan olimlarning mashraqqati, ammo sharaflari faoliyati ulug'langan. Bu ham mamlakatimizda ilm ahliga bo'lgan chuqur hurmat va ishonchning yaqqol namunasidir.

Ilm-fan rivojiga bo'lgan ana shu yuksak e'tiborning mantiqiy davomi sifatida davlatimiz rahbarining 2025-yil 27-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qo'rarori, hech shubhasiz, tarixiy ahamiyatga molik. Ushbu qaror mamlakatda ilm-fanni tizimli ravishda rivojlantirish, ilmiy salohiyatni iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlari bilan chuqur integratsiya qilish, fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini oshirishga qaratilgan strategik hujjatdir.

Qarorda 2030-yilga qadar ustuvor ilmiy yo'nalishlar bo'yicha maqsadli tadqiqotlarni tashkil etish, ayniqsa, yosh olimlarning ilmiy faoliyatidagi ulushini yanada kengaytirish, ilmiy xodimlar tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda xalqaro nufuzli ilmiy nashrlarda chop etiladigan maqolalar sonini oshirish bo'yicha aniq, maqsadli vazifalar belgilab

berilgan. Ular ijrosi milliy ilm-fanning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini ta'minlash, ilmiy natijalarning amaliy ahamiyatini kuchaytirishga xizmat qilishi, shubhasiz.

Ilm ahliga surur, mas'uliyat va ertangi yorug' kunlarga so'nmas ishonch ruhini uyg'otuvchi qarorda yosh olimlarni qo'llab-quvvatlash, ular uchun loyihalar, xorijiy stajirovkalar va xalqaro ilmiy hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirishga, moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlashga alohida diqqat qaratilgani ilgga endi kirib kelayotgan yosh avlodni qat'iyat va shijoat bilan mehnat qilishga, muntazam ilmiy izlanishga undashi aniq.

Prezidentimizning mazkur qarorida yana bir masala o'z yechimini topgan. Xususan, Fanlar akademiyasining Temuriylar tarixi Davlat muzeyi, Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi, O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha muvofiqlashtiruvchi metodik markazi, Xalqaro molekulyar allergologiya markazi rahbar va ilmiy xodimlarining ish haqlari ilmiy muassasalarning rahbar va ilmiy xodimlari bazaviy lavozim maoshlariga tenglashtirilishi belgilab qo'yilgan. Albatta, bu mazkur tashkilotlar xodimlarining o'z faoliyatlariga bo'lgan rag'bat va mas'uliyatlarini yanada kuchaytiradi.

Qarorda Fanlar akademiyasi tomonidan amalga oshiriladigan ilmiy-tadqiqot ishlarining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari qatori, gumanitar fanlar sohasida zamonaviy ilmiy yondashuvlarni joriy etish, milliy til, adabiy meros, tarix hamda xalq og'zaki ijodini xalqaro ilmiy standartlar asosida o'rganish va targ'ib qilish uqlarini ham yanada kengaytiradi.

Umuman, qaror ijrosini ta'minlash natijasida 2030-yilgacha Fanlar akademiyasi va uning tizimi tashkilotlarida yangi ilmiy ishlanmalar soni va tijoratlashtirishdan olinalagan mablag'lar hajmini 3 baravar, ilmiy xodimlar tarkibida yoshlar ulushini 60 foizgacha, nufuzli xalqaro ilmiy nashrlarda chop etilgan maqolalar sonini 4 karra, akademiklar va professorlarning ta'lim jarayonidagi ishtirokini 5 hissa, xalqaro hamkorlikda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar sonini 3 baravar oshirish ko'zda tutilgan.

Shubhasiz, mazkur qaror "Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat" g'oyasini amalga oshirish, ilm-fanni milliy taraqqiyotning ustuvor omiliga aylantirish yo'lidagi muhim qadamdir. Unda belgilangan maqsad va vazifalar jahon ilm-fani maydonida mamlakatimiz ilmiy salohiyatini namoyon qilish, fundamental va amaliy tadqiqotlar sifatini bir necha karra yaxshilash, ilmiy natijalarni amaliyotga tatbiq etish, shuningdek, milliy-ma'naviy merosimizni o'rganish, targ'ib va rivojlantirish uchun g'oyatda keng istiqbolarga yo'l ochadi.

Nizomiddin MAHMUDOV,
O'zRFA O'zbek tili, adabiyoti va
folklori instituti direktori,
filologiya fanlari doktori, professor.

KATTA SAKRASH

YOXUD O'ZBEKISTON SUN'IY INTELLEKT VA
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR RIVOJIDA YANGI BOSQICHGA QADAM QO'YDI

Sarhisob

Chindan ham, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, innovatsion ta'lim va elektron davlat xizmatlari iqtisodiy o'sish hamda ijtimoiy samaradorlikni belgilab beruvchi asosiy omilga aylandi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, "Insoniyat sun'iy intellekt davriga kirib bormoqda, kim bu jarayonda ilgirilasa, marra shuniki bo'ladi".

Davlat rahbarining chuqur texnologik o'zgarishlarga nisbatan ana shunday strategik yondashuvi tufayli sun'iy intellekt va AKT iqtisodiy o'sishning yangi drayveriga aylanib, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash, moliya va logistika sohalariga jadal joriy etilmoqda.

10 milliard dollarlik
salohiyat

2025-yilni sarhisob qilar ekanmiz, mamlakat iqtisodiy taraqqiyoati raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt rivoji bilan uzviy bog'liq ekaniga guvoh bo'lishimiz mumkin. Gap bu yerda AKT sohasida xizmatlar hajmining keskin ortishi iqtisodiyotda alohida "raqamli sektor" paydo bo'lgani haqida emas, balki raqamli yechimlar deyarli barcha tarmoqlarga chuqur kirib borayotgani xususida ketmoqda. Aytaylik, o'rgan yilning yanvar – noyabr oylarida AKT sohasida 68 trln. so'mlik xizmatlar ko'rsatilib, o'sish sur'ati 120 foizni tashkil etdi. Bu ko'rsatkichlar raqamli platformalar, avtomatlashtirish, elektron xizmatlar va sun'iy intellektga asoslangan qarorlar iqtisodiy faollikni tezlashtirganini anglatadi.

Muhim jihati shundaki, jadal o'sish sur'atlari infratuzilmaga sarf-xarajatlar hisobidan emas, samaradorlik oshishi evaziga ta'minlanmoqda. Sodda qilib aytganda, sun'iy intellekt va zamonaviy texnologiyalar davlat boshqaruvi, xizmatlar, logistika, moliya va ishlab chiqarish jarayonlarida vaqt hamda resurslarni tejash imkonini berdi. Natijada iqtisodiy faollikning umumiy hajmi ortib, qo'shilgan qiymat yaratish sur'ati tezlashdi. So'nggi uch yilda axborot va aloqa sohasida yaratilayotgan qo'shilgan qiymat hajmining o'rtacha 24,1 foiz o'sishi ham ushbu transformatsiyaning samarasidir.

Raqamli texnologiyalar iqtisodiyotdagi tarmoqlararo tafovutlarni ham qisqartirmoqda: an'anaviy sohalarda o'sish ko'proq moddiy resurslar va bozor konyunkturasiga bog'liq bo'lsa, raqamli

yechimlar joriy etilgan sohalarda o'sish barqaror va tezkor tus oldi. Shuningdek, raqamli rivoj tashqi ochiqlikka ham ta'sir ko'rsatyapti. IT va masofaviy xizmatlar eksporti hajmining ortishi, xizmatlar geografiyasining kengayishi iqtisodiy o'sishning ichki bozor bilan cheklanib qolmasligini ta'minladi. Xalqaro amaliyotda bu jarayon "technology-driven growth", ya'ni texnologiyalarga tayanadigan o'sish modeli sifatida tavsiflanadi.

O'zbekiston misolida ham iqtisodiy natijalar sun'iy intellekt, raqamli platformalar va avtomatlashtirilgan xizmatlar orqali shakllanmoqda. Prezidentimiz 21-oktabr kuni davlat boshqaruvi, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarda sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida xorijlik ekspertlar O'zbekistonning sun'iy intellekt sohasidagi salohiyatini 10 mlrd. dollarga baholayotganini aytdi. Bu salohiyatni real imkoniyatga aylantirish uchun infratuzilma, ochiq ma'lumotlar va kadrlar tayyorlashga e'tiborni kuchaytirish zarurligi ta'kidlandi. Joriy yil aynan iqtisodiy kapitalarni jalb qilish yo'lidagi "katta sakrash"lardan biri bo'ldi.

Iqtisodiy transformatsiya
mevasi

2025-yilda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt rivoji O'zbekiston iqtisodiyotining xalqaro ochiqqligini sifat jihatdan yuqori pog'onaga olib chiqdi. Bu, avvalo, xorijiy investitsiyalar dinamikasida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Joriy yilning 11 oyida sohada amalga oshirilgan 20 ta investitsiya loyihasi doirasida 497,5 mln. AQSh dollari o'rnatilirdi, shundan 353,5 mln. dollari xorijiy investitsiya va kreditlar hissasiga to'g'ri keldi. So'nggi uch yilda esa sohaga qariyb 2 mlrd. dollarga yaqin xorijiy kapital jalb etildi, uning 70 foizdan ortig'ini to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar tashkil qildi. Buning barchasi investorlar O'zbekistonda raqamli transformatsiyani amalda namoyon etayotgan bozor sifatida tan olayotganidan dalolat, albatta.

Ta'kidlash kerakki, raqamli texnologiyalarga tayangan iqtisodiy taraqqiyot tashqi aloqalarda ham o'z ifodasini topmoqda. Negaki, 2025-yilda IT va masofaviy xizmatlar eksporti 857,8 mln. dollarga yetdi va avvalgi yildagiga nisbatan 1,4 barobar oshdi. So'nggi uch yilda eksport hajmining 2,8 barobar o'sib, 323 mln. dollardan qariyb 1 mlrd. dollar darajasiga yaqinlashishi raqamli xizmatlar mamlakat uchun strategik eksport yo'nalishiga aylanayotganini anglatadi. Va e'tiborlisi, bu

o'sish xomashyo emas, balki intellektual mehnat va texnologiyalarga asoslangan xizmatlar hisobiga ta'minlanmoqda.

Bu natijalar mohiyatini chuqurroq anglash uchun Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2021-yilda Xorazm viloyati faollari bilan uchrashuvda iqtisodiyotning yetakchi sohasi bo'lgan paxtachilikdan olingan daromad yillar davomida 1 mlrd. dollarga ham yetmagani haqida kuyinib aytgan gaplarini eslash kifoya. Zotan, bugun o'sha majburiy mehnat va xalqaro sanksiyalar nishoniga sabab bo'lgan an'anaviy sohadan ko'ra, kelajak kasblari orqali yuqori qiymat yaratilayotgani iqtisodiy transformatsiyaning mazmunan o'zgariganini ko'rsatadi.

Eksport geografiyasining kengayishi ham raqamli sohaning xalqaro raqobatbardoshligini tasdiqlaydi. AQSh va Buyuk Britaniyaga eksport umumiy hajmining deyarli yarmi xizmatlar ulushiga to'g'ri kelayotgani O'zbekiston kompaniyalari yuqori talab va kuchli raqobat mavjud bozorlarga chiqishga qodir ekanini tasdiqlab turibdi.

Eksperimentdan – tizimli
siyosatgacha

Eksptertlarning e'tirof etishicha, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt sohasidagi o'sish tasodiydir emas. Bu jarayonda mustahkam innovatsion infratuzilma yaratilgani, IT-park va startap ekotizimining shakllanishi hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Bir misol. So'nggi uch yilda IT-park rentidentlari soni 3 barobarga oshib, 3 348 tani tashkil qildi. Xorij kapitali ishtirokidagi rentidentlar sonining 5,6 barobarga o'sib, 915 taga yetgani O'zbekiston startap muhitining xalqaro jozibadorligi ortib borayotganini tasdiqlaydi.

"Raqamli startaplar dasturi" doirasidagi akseleratsiya dasturlari orqali 160 dan ortiq loyihalar qo'llab-quvvatlandi. Shu bilan birga, mahalliy venchur jam'armalari soni 15 tadan oshib, ularning umumiy ustav kapitali 180 mln. dollardan oshdi. Startaplarga yo'naltirilgan venchur investitsiyalari hajmi esa 350 mln. dollarga yetdi. Pirovardida O'zbekiston "Global Startup Ecosystem Index" reytingida 12 pog'onaga ko'tarilib, "TOP – 100" davlatlar qatoriga kirdi.

Ushbu reytingga ko'ra, Toshkent shahri Markaziy Osiyoda eng tez rivojlanayotgan

ko'rinib turibdiki, 2025-yil O'zbekiston uchun raqamli transformatsiya sohasida muvaffaqiyatlarga boy yil bo'ldi. Zero, yuqorida keltirilgan faktlar raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt iqtisodiy o'sish, davlat boshqaruvi hamda ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirishda yuksak natija bergan ko'plab misollardan bir shingil, xolos. Endilikda asosiy vazifa erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, ularni tizimli va barqaror rivojlanish modeliga aylantirishdan iborat. Chunki sun'iy intellektni milliy raqobat ustuniga aylantirish istiqbollari aynan shu bosqichda hal qilinadi.

Agar hisoblash infratuzilmasi, inson kapitali, huquqiy muhit va institutsional hamkorlik bir vaqtda rivojlansa, sun'iy intellekt O'zbekiston uchun faqat texnologik yangilik emas, balki iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning asosiy omiliga aylanadi. Bu mamlakatga global raqamli zanjirlarda faol ishtirok etish, eksport salohiyatini oshirish va yuqori qo'shilgan qiymat yaratish imkonini beradi.

Sanjar SHOMURODOV
("Xalq so'zi").

REKLAMA

“Elektron Realtor”
MCHJ

to'g'ridan-to'g'ri
muzokaralar olib berish yo'li
bilan tashkillashtiriladigan
ko'chmas mulklar va ularga
bo'lgan huquqlar bo'yicha o'tkaziladigan
savdoga taklif etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-apreldagi PQ-142-sonli qaroriga asosan "O'zsanotqurilishbank" ATB balansida bo'lgan:

– Sirdaryo viloyati, Sirdaryo tumani, "Shirin" MFY, Yangi ko'cha ko'chasi, 70-uyda joylashgan yakka tartibdagi turarjoy binosi sotiladi.

Sotish sharti va narxi bilan "www.e-rieltor.uz" sayti orqali tanishish mumkin.

Savdoga qo'yilgan mulkni bevosita joyiga chiqib ko'rish imkoniyati bor.

Savdoda ishtirok etish uchun talabgorlar **"e-rieltor.uz"** platformasi orqali ariza berishi kerak.

Call-markaz: +99855-517-22-20. Rasmiy saytimiz: **"www.e-rieltor.uz"**

TOVUQ GO'SHTI: XAVOTIR VA ILMIY ASOS

Xalqimiz dasturxonini tovuq go'shtidan tayyorlangan xushxo'r taomlar doim bezab turadi. Ammo so'nggi paytda odamlar orasida tovuq go'shti haqida turli gap-so'zlar tarqalmoqda. Tahririyatimizga gazetonlar tomonidan shu mavzuda murojaatlar yo'llanmoqda. Ularda bu parhez go'sht "gormonli", "sun'iy o'stirilgan", "sog'liq uchun zararli" degan fikrlar aytilmoqda.

So'ragan edingiz

Xo'sh, bu qanchalik asosli? Ilmiy dalillar va amaliyotda bu isbotini topganmi? Shu kabi savollarga oydinlik kiritish uchun "Parrandasanoat" uyushmasi raisining veterinariya bo'yicha maslahatchisi Po'lat Rahmatullaevni suhbatga tortdik.

– Ilmiy dalillar va amaliyot aholi o'rtasidagi bu ommaviy xavotirlarni rad etadi, – deydi u. – Aslida, bunday qarashlarga hech qanday ilmiy asos yo'q. Zamonaviy parrandachilikda gormon qo'llash qat'iy taqiqlangan. Buni nafaqat qonun, balki iqtisodiyotimiz ham rad etadi: gormonlar juda qimmat, tovuq esa tabiiy ravishda 35 – 45 kunda o'sib yetiladi. Xullas, "gormonli tovuq"

degan tushunchalar bu shunchaki shov-shuv, xolos.

– Aytinch, u holda tovuqning haddan tashqari tez o'sishi va yetilishi nimaning hisobiga ro'y beryapti?

– Savolingiz o'rinni. Aynan shu tomoni odamlarda xavotir uyg'otishga sabab bo'lmoqda. Bu seleksiya mahsulidir. Muvozanatli ozuqa va to'g'ri parvarishning samarasi tufayli tovuqlarda tez yetilish kuzatiladi. Tan olish kerak, keyingi yillarda sohaga innovatsiyaning chuqur kirib kelishi natijasida genetika yaxshilandi, ratsion me'yorlashdi.

Bu yerda xavotirga o'rin yo'q, chunki hech qanday sun'iy yo'llar bilan tovuqning semirishi tezlashmaydi. Bu – butun dunyoda qo'llanilayotgan ilmiy yondashuv.

– Bu borada iste'molchi qay darajada himoyalangan, sifat doimiy nazoratga olinganmi?

– Bizda nazorat ko'p bosqichli tarzda olib boriladi. Aytaylik, fermadan tortib, tovuqni so'yish, qayta ishlash va bozorga tayyor holda chiqargunga qadar veterinariya-sanitariya talablariga qat'iy amal qilinadi. Zamonaviy laboratoriya tekshiruvlarida tahlildan o'tkazish muntazam olib boriladi. "Parrandasanoat" uyushmasi tomonidan sifat va xavfsizlikka qat'iy e'tibor qaratiladi. Bizda sifat nazorati eng ustuvor vazifa etib belgilab qo'yilgan.

– Shu sohaning mutaxassisi sifatida aytinch, tovuq go'shtining inson salomatligi uchun foydali jihatlari qanday?

– Tovuq go'shti parhezboz va yuqori sifatli oqsil manbai ekanini bilari alohida ajralib turadi. Unda yog' miqdori juda kam, ayniqsa, ko'krak qismi – parhezdagi bemorlar uchun hazmi taom. "B" guruh vitaminlari, temir va ruxga juda boy. Eng muhimi oson hazm bo'ladi, bolalar va keksalar uchun juda to'yimli taom. Ayni qish faslida, sovuq kunlarda tovuq go'shtini iste'mol qilish, ayniqsa, foydali. Chunki qishda immunitetga ehtiyoj ortadi. Tovuq shov'ras, dimlama yoki gril taomlari organizmni quvvatlantiradi, og'irlik bermaydi.

– Ba'zi kishilar tovuq go'shtida "antibiotik qoldiqlari mavjud" deb xavotir bildirishadi. Bu haqda nima deysiz?

– Antibiotiklar faqat zaruratda, veterinariya nazoratida qo'llanadi va kutilma muddati qat'iy saqlanadi. Parrandalarga antibiotik berilgandan keyin ushbu tovuq tuxumi va go'shti 11 kun iste'molga tavsiya etilmaydi. Bu muddatdan oldin mahsulot



realizatsiya qilinmaydi. Yurtimizda bu jarayon qat'iy nazoratda. Chunki inson salomatligi har narsadan ustun. Shuning uchun biz mahsulotni ishonchli qo'llardan xarid qilishni tavsiya etamiz. Iste'molchi doim qadoqdagi ma'lumotlarga e'tibor berishi lozim. Uydah esa uni to'g'ri saqlash va puxta termik ishlav berish ham o'ta muhim. Ana shunda tovuq go'shtidagi barcha foydali elementlar saqlanib qoladi.

Xulosa o'rinda aytsak, asossiz mish-mishlarga emas, ilmiy yechimlarga ishonish kerak. Zero, sog'lom dasturxon – sog'lom kelajak demak.

Faxriddin BOZOROV
("Xalq so'zi") yozib oldi.

Andijon viloyatining Bobur shahrida 2026-yildan har ikki yilda 1 marotaba, qoida tariqasida, may oyida rassomlar festivali tashkil etiladi va g'oliblar avtomobil bilan taqdirlanadi.

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-142. 31 016 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'o'z bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibxona 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator M. Begumratov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir R. Bobojonov.
Muharrir Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 20.30 Topshirildi – 23.15 1 2 3 4 5 6